
MAISHIY CHIQINDI XIZMAT HAQINI TO'LADINGIZMI?



Qo'shtepa tumanida maishiy chiqindilarni tashib ketish borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Lekin masalaning bir og'riqli jihatidan ko'z yumib bo'lmaydi, chiqindi tashuvchi korxonadan tomonidan ko'rsatilgan xizmatga aholi tomonidan o'z vaqtida haq to'lanyaptimi?

Bugunga kelib aholining Qo'shtepa tumanidagi "Vodiy maxsus Sanitar Trans" DXSh korxonasidan qarzdorligi 2 milliard so'mdan ziyodni tashkil qilmoqda.

Nega endi o'z xonadonimizdan chiqarib qo'yilgan chiqindini tashib ketgan, ko'chalar va mahallalar ozodaligiga, tabiat musaffoligiga fidoyilarcha hissa qo'shayotgan korxonaga to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirmaymiz? Axir, kun sayin ortib borayotgan qarzdorlik, to'lanmayotgan mablag'lar bu tashkilotlarning tobora "sinishi"ga, ishchi-xodimlarning o'z vaqtida maosh ololmasligiga, texnikalar uchun ehtiyot qismlar sotib olishning kechikishiga, umuman, katta ahamiyatga ega bo'lgan sanitar xizmati sifati pasayib ketishiga sabab bo'ladi-ku?!

Hurmatli tumanimiz fuqarolari!

Tumanimizdagi ko'chalar va mahallalar ozodaligiga, tabiat musaffoligiga fidoyilarcha hissa qo'shayotgan "Vodiy maxsus Sanitar Trans" DXSh korxonasidan bo'lgan maishiy chiqindi qarzdorligini o'z vaqtida to'lashingizni so'rab qolamiz!

Qo'shtepa tumani "Vodiy maxsus Sanitar Trans" DXSh korxonasi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2023-01-07 14:22:15